



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «29» июль

VI-51-145-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 8-apreldagi KQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2022 yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 8-apreldagi KQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 iyuldagi "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 459-sonli qarori, Xalq deputatlari tuman kengashining 2022 yil 6-yanvardagi VI-42-1-8-109-K/22-sonli qarori, tuman hokimligining tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022 yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 1840,0 mln. so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan

yoʻnaltirilgan mablagʻlar toʻgʻrisida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qoʻshimcha manbalari hisobidan mablagʻ oluvchi tashkilot rahbari ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablagʻlarni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi R.Qobilova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 29 iyuldagi
VI-51-145-8-109-K/22-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining 2022 yil davomiga ko'ra qo'shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar

T/p	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo'yicha ajratilgan mablag' maqsadi	Miqdori (mln.so'mda)	Foiz hisobida
	1	2	3	4
	Jami tuman budjetining 2022 yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'lar		1 840,0	100%
	Jami summasi		8,2	0,4%
I.	Aholini ijtimoiy himoyalashga		8,2	0%
1,1	Tuman Hokimligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 iyuldagi "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 459-sonli qarori ijrosi yuzasidan Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholining ipoteka kreditlar bo'yicha qarzdorliklarni qoplash xarajatlari uchun	8,2	0,4%